

"BEHBUDIY IZDOSHLARI" ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI



Masalan:

" o'tgan kun juda bulutli edi, ammo endi quyosh yorisha boshladi".

"Men o'zimni toshbaqa kabi his qilayapman sekin asta harakatlanayotgan"

" Men mashg'ulotga kirganimda kichgina va ko'zga taslanmaydigan chumchuqdek edim, ammo endi burgutdek his qilayapman.

Ushbu metod orqali o'quvchilarining kayfiyatlarini bilishimiz mumkin bo'lib, shu bilan birgalikda o'quvchilarining mustaqil fikrlilikga, ijodkorlik xislatlarini rivojlantirish mumkin.

XULOSA: zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga joriy etish, ta'lif samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. O'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish. Ushbu texnologiya o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan narsanng ko'p xilma-xil ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatish ta'lif sifatini oshiradi. Biz qanchalik o'quvchilarga sifatli bilim bersak bu bizning yutugimiz va o'quvchilar ilmiy salohiyatlari shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim samarasini oshirishda nafaqat bilimi balki mustaqil fikrlash shu bilan birga zamonaviy texnologiya bilimlar bilan han hamnafas yoshlari yetishib chiqadi deb o'yiman. O'quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag'batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo'l keladi. Har bir o'qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tsa bu o'z natijasini beradi. Mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga yetishib chiqadi va bunga degan umiddaman.

ZAMONAVIY DUNYODA AYOLLAR VA HUNARMANDCHILIK



Abdullayeva Shahnoza Zafar qizi 1996-yil 16 - iyunda Samarqand viloyati Tayloq tumanida tavallud topgan. 2023-yil Samarqand Davlat Chet tillar institutini tamomlagan. 2025-yil yanvar oyida "Scientific Academy" ilm-ma'rifat markazining MDH davlatlari miqyosda tashkil etilgan "Fidoyi xizmatlar uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Hozirda uyda bola parvarishi va hunarmandchilikning sovunli gullar sohasida bir qancha shogirdlari va shaxsiy biznesi bor.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Hunarmandchilik – nafaqat san’at, balki sabr-toqat, mehnat va insonning yuksak didi timsolidir. Bu soha xalq ijodining bir qismi bo’lib, unda millatning tarixi, urf – odatlari va ma’naviy dunyosi aks etadi. Bugungi globallashuv davrida ushbu merosni ommalashtirish va yangi avlodga yetkazish dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda ayollar bu sohada faol bo’lib, o’z ijodi va qo’l mehnati orqali nafaqat oilasiga shu bilan birga jamiyatga ham foyda keltirmoqda. Hunarmandchilik ayollar uchun o’zini nomoyon qilish, moliyaviy erkin bo’lish, hamda jamiyatda o’z munosib o’rnini topishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Zamonaviy dunyoda, texnika va texnologiyalar jadal sur’atlarda rivojlanyotgan bir davrda, an’anaviy hunarmandchilik ham o’z o’rnini yo’qotmadi. Aksincha, hozirda milliylik, qo’l mehnati va tabiiy materiallarga bo’lgan qiziqish ortib bormoqda. Hunarmandchilik bugungi global bozorda o’z o’rniga ega bo’lib, madaniy va iqtisodiy rivojlanishning muhim yo’nalishiga aylanmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy hunarmandchilik va unda ayollarning ro’li mavzusida so’z yuritamiz.

Ayollar hunarmandchiligining tarixi

Hunarmandchilik ayollar faoliyatining qadimiylari va barqaror shakllaridan biridir.O’zbekiston hududida ayollar qadimdan gilamdo’zlik, kashtachilik, to’quvchilik, zardo’zlik, kulolchilik kabi hunarlar bilan shug’ullangan. Bu nafaqat ayollarni iqtisodiy jihatdan o’z ehtiyojlarini qondirgan, balki madaniy merosni saqlash va avloddan avlodga o’tkazishning muhim shakli bo’lib xizmat qilgan.

Zamonaviy imkoniyatlar va texnologiyalar

Zamonaviy taraqqiyot ayollarga hunarmandchilik orqali nafaqat o’z yurtida, balki xalqaro bozorda ham o’z o’rnini topish va mahsulotini keng qamrovda sotish imkonini bermoqda. Ijtimoiy tarmoqlar(Instagram, Telegram, Facebook), e-tijorat platformalari (Etsy, Amazon, Handmade)ayollar mahsulotini keng auditoriyaga taqdim etish, hamda hunarlarini onlayn kurslar ko’rinishida ham sotib, bir qancha shogirdlarga o’rgatib ham daromad qilishlariga imkon bermoqda. Bundan tashqari, onlayn ta’lim vositalari (YouTube, Coursera) ayollarga yangidan yangi hunar o’rgatuvchi darsliklar va kurslar taqdim etib, hunarlarni egallah va malakalarini oshirishga imkon bermoqda.

Iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik

Ayollar tomonidan amalga oshirilayotgan hunarmandchilik faoliyati oila byudjetini mustahkamlashga, o’z biznesini yo’lga qo’yish va jamiyatdagi o’z iqtisodiy ro’lini oshirishga katta xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qishloqlarda uy ishlari bilan bir qatorda hunarmandchilik bilan ham shug’illanuvchi ayollar soni ortib bormoqda. Bunda davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiya va grantlar ular uchun yaratilgan keng imkoniyat eshiklaridir. Bunday ayollar nafaqat o’zini o’zi ish bilan ta’minlayapti, balki bir nechta ish o’rinlari ham yaratishyapti.

Madaniy merosni asrash va yangicha yondashuv

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Hunarmandchilik orqali ayollar o‘z milliy qadriyatlarimizni namoyon qilishmoqda. Kashtachilik, gilamdo‘zlik, atlaschilik, to’quvchilik, zardo‘zlik kabi hunarlar nafaqat milliy o‘zlikni ifodalaydi, balki zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashgan holda yangi, kreativ g’oyalar asosida mahsulotlar yaratishga xizmat qilmoqda. Natijada, milliylik hamda zamonaviylik uyg‘unligida yaratilgan mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Hozirda to’quvchilik sohasi ham ancha innovatsion g’oyalar bilan boyitilgan holda ichki va tashqi bozorda o‘z o‘rnini egalladi. Avvallari shapka, sharf va ust kiyimlar to’qilgan bo’lsa, endi esa hamma narsani (bolalar o‘yinchoqlari: kitoblar, ayiqcha, quyoncha, xatto qo’g’irchoq, sumka, har xil bolalarni solish uchun savatchalar va atrofimizdagi barcha buyumlarni to’qisa bo’ladi va bularni o‘rganish uchun kurslar ham bor.

Qo’l mehnatining yana bir turi hozirda ommalashmoqda – busovunli gullar sohasidir. Bu sohada, siz, istalgan turdagи gullarni o‘z iforlari bilan tayyorlab, ko’rinish jihatidan haqiqiyisidan farq qilmaydigan darajada xaridorga taqdim qilsangiz bo’ladi. Bu gullarni tabiiy gullardan farqi, so’lib qolmaydi, xushbo’y ifor taratib turadi, ajoyib suvenir, ranglari yorqin bo’ladi vasovun sifatida ishlatish mumkin.

Davlat va xalqaro ko‘maklar

So‘nggi yillarda ayollar hunarmandchiligi O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. “Ayollar daftari” orqali moliyaviy yordamlar, hunar o‘rganish uchun kurslar, ko‘rgazmalarda ishtirok etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlar — UNDP, UN Women, GIZ va ”Xalqaro hunarmandchilik festivali” — bu borada amaliy yordam ko‘rsatmoqda. Qadimiyo Qo’qon shahrida bo’lib o’tgan ”Xalqaro hunarmandchilik festivali” doirasida nafaqat hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazmasi bo’lib o’tdi, balki ularning keng qamrovli sotuvi ham amalga oshirildi. Xalqaro festival ko’rik tanlovi g’oliblari bir necha naminatsiyalar bo'yicha aniqlanib, pul mukofoti va esdalik sovg’alari bilan taqdirlandilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dunyoda ayollar hunarmandchiligi iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning muhim jihatiga aylanmoqda. Bu nafaqat ayollarni moddiy tomonidan mustaqil bo’lishlariga, balki milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishga va dunyoga tanitishga xizmat qilmoqda. Kelajakda ayollarni hunarmandchilikka jalb qilish, ularni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollantirish orqali bu sohani rivojlanish va yangi bosqichga olib chiqish mumkin. O‘z kasbini ustasi bo’lgan ayollar ham hunarmand bo’lishlari mumkin – bu hatto ularning yangi qirralarni oshib, ijodiy salohiyatini kengaytiradi. Masalan, o’qituvchi, shifokor, yurist va boshqa kasb vakillari bo’lgan ayollar, ishdan bo’sh vaqtlarida to’qish, tikish, zargarlik, pazandachilik kabi hunar turlarini o‘rganib, uni daromad manbaiga aylantirishlari mumkin.

Bu nafaqat moddiy foyda bo’lib qolmasdan, balki shaxsiy rivojlanish, ijodlorlik, stressdan xalos bo’lish uchun ham juda samarali yordam beradi. Hattoki, ularning ikki yo‘nalishdagi bilim va ko’nikmalari bir – birini to’ldirib jamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamlashga, hamda o’ziga bo’lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.